XORAZM VILOYATI XIVA TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 4-noyabr | 260-12-176-Q/25 | Xiva tumani hokimligi

Xiva tumanidagi aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini 2026-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mehnat munosabatlari va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ish beruvchilarni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2025-yil 4-avgustdagi PF-126-sonli Farmoniga asosan, Xiva tumanidagi aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini 2026-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risidagi taklifi atroflicha muhokama etilib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan,

Qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2025-yil 23-iyundagi PF–98-son Farmoniga asosan, ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish vakolatlari tuman hokimiga o‘tkazilganligi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mehnat munosabatlari va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ish beruvchilarni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2025-yil 4-avgustdagi PF-126-son Farmoniga asosan:

xo‘jalik yurituvchi subyektlar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy

zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 3 foizidan oshmasligi hamda xodimlar soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan qo‘llanilishi;

budjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan hamda odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 7 foizidan oshmasligi hamda xodimlar soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan tatbiq etilishi belgilanganligi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

Xiva tumani hokimligining kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi hamda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazining tuman hududidagi tashkiloti bo‘yicha 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarini belgilash to‘g‘risidagi quyidagi takliflari ma’qullansin:

Xodimlar soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan davlat tashkilotlarida majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining 7 foizidan oshmagan miqdorda hamda xodimlar soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarda (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining 3 foizidan oshmagan miqdorida kelgusi yil uchun 84 ta ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish;

Jumladan:

- nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 38 foiz (32 kishi);
- oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar uchun 2 foiz (2 kishi);
- kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari uchun 55 foiz (46 kishi);
- jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar uchun 5 foiz (4 kishi);

3. 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish maqsadida quyidagilar:

davlat tashkilotlari (budjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

xodimlarning ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni 100 nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlari:

zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida 25 foizi miqdorida zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining tayyorligini yil boshlanishidan oldin 10 kundan kechiktirmay ta’minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar tuman hokimligining kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini xabardor qiladi;

ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlashi, bu haqda tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini birinchi chorak tugaganidan so‘ng, 10 kundan kechiktirmay xabardor qiladi;

ishga joylashtirish to‘g‘risida tuman hokimligining kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar axborot taqdim etadi.

Zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarini saqlash shartlari O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 40-moddasiga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta’minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2025-yil 14-fevraldagi PQ-64-son qaroriga muvofiq, aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridan bo‘lgan shaxslarni ish o‘rinlarining belgilangan eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilish uchun ish beruvchilarga har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida subsidiya mablag‘lari to‘lab berilsin.

6. Tuman hokimligining kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi M.Rahimberganov:

8 kun muddatda ushbu qaror nusxasini 1 va 2-ilovalarda ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlarining e’tiboriga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin;

aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha Xalq deputatlari Xiva tumani Kengashining ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlikka tortish ta’minlansin.

7. Ushbu qaror ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari B.Xudayberganov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **S.Palvanov**

Xiva tumani hokimining
2025-yil 4-noyabrdagi
260-12-176-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Xiva tumanida 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun davlat tashkilotlari *(budjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar)* **tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli**

RO‘YXATI

T/r	Tashkilot nomi	Tashkilot STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	shundan,	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:					
				nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		Nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar	jazoni ijro etish muassasa-laridan ozod qilingan shaxslar	odam savdosidan jabrlangan shaxslar
JAMI:			**6270**	**134**	**81**	**31**	**0**	**46**	**0**	**4**	**0**
1.	Xiva tumani 1-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206908117	64	3	1	1					
2.	Xiva tumani 2-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206908100	44	2	1			1			
3.	Xiva tumani 3-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206908060	68		1	1					

4.	Xiva tumani 4-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203274300	97		1	1					
5.	Xiva tumani 5-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203274317	93	1	1	1					
6.	Xiva tumani 6-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203274324	103		1	1					
7.	Xiva tumani 7-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203274332	128	5	1	1					
8.	Xiva tumani 8-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203272865	161	2	1			1			
9.	Xiva tumani 9-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203274349	114	4	1	1					
10.	Xiva tumani 10-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203274356	124	2	1			1			
11.	Xiva tumani 11-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203274364	84	2	1	1					
12.	Xiva tumani 12-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203274371	108	2	1	1					

13.	Xiva tumani 13-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206907893	54	1	1	1					
14.	Xiva tumani 14-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206907901	94		1	1					
15.	Xiva tumani 15-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206907918	90	1	1			1			
16.	Xiva tumani 16-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206907925	90		1	1					
17.	Xiva tumani 17-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206907933	70	4	1	1					
18.	Xiva tumani 18-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203274411	77	2	1			1			
19.	Xiva tumani 19-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203274428	106	2	1	1					
20.	Xiva tumani 20-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203274435	99	4	1			1			

21.	Xiva tumani 21-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203272873	118	1	1			1			
22.	Xiva tumani 22-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203274443	85	1	1			1			
23.	Xiva tumani 23-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206908077	49	1	1	1					
24.	Xiva tumani 24-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206907940	50	3	1			1			
25.	Xiva tumani 25-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206907957	43		1	1					
26.	Xiva tumani 26-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206907972	86	1	1			1			
27.	Xiva tumani 27-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206908156	45	2	1			1			
28.	Xiva tumani 28-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203274450	27	1	1			1			

29.	Xiva tumani 29-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206907989	41	1	1			1			
30.	Xiva tumani 30-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206908149	36	1	1			1			
31.	Xiva tumani 31-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206907996	61	3	1			1			
32.	Xiva tumani 32-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206908006	49	1	1			1			
33.	Xiva tumani 33-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206908132	43	1	1			1			
34.	Xiva tumani 34-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206908014	43	2	1			1			
35.	Xiva tumani 35-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206908124	35	1	1			1			
36.	Xiva tumani 36-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	207095386	48	1	1			1			

37.	Xiva tumani 37-sonli Idum	203387405	63		1			1			
38.	Xiva tumani 38-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206908045	48		1	1					
39.	Xiva tumani 39-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206908053	40		1			1			
40.	Xiva tumani 40-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	207302182	39		1			1			
41.	Xiva tumani 41-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	308789318	35		1	1					
42.	Xiva tumani 42-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	308709344	55	1	1	1					
43.	Xiva tumani 1-son davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207087356	29		1			1			
44.	Xiva tumani 2-son davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207087300	56	1	1	1					
45.	Xiva tumani 3-son davlat maktabgacha	207097794	48	1	1			1			

	ta’lim tashkiloti										
46.	Xiva tumani 4-son davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207087324	50		1	1					
47.	Xiva tumani 5-son davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207087332	46	1	1	1					
48.	Xiva tumani 6-son davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207097803	56		1	1					
49.	Xiva tumani 7-son davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207087317	40		1	1					
50.	Xiva tumani 8-son davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207097827	43		1			1			
51.	Xiva tumani 9-son davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	305437338	31	1	1	1					
52.	Xiva tumani	305421604	48		1			1			

	10-son davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti										
53.	Xiva tumani 11-son davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	305415658	29		1	1					
54.	Xiva tumani 12-son davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	305567034	36		1			1			
55.	Xiva tumani 13-son davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	305645736	70		1			1			
56.	Xiva tumani 14-son davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	305646054	47		1	1					
57.	Xiva tumani 15-son davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207304726	60	1	1			1			
58.	Xiva tumani 16-son davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	305829316	49	1	1			1			

59.	Xiva tumani 18-son davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207304931	63	1	1			1			
60.	Xiva tumani 19-son davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	310071714	33		1	1					
61.	Xiva tumani hokimligi huzuridagi obodonlashtirish boshqarmasi	206943881	215	3	4					4	
62.	Xiva tumani yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi	201076477	77	3	1			1			
63.	“Xorazm viloyati Madaniyat boshqarmasi Xiva tuman hokimligi Madaniyat bo‘limi” davlat muassasasi	201987260	54	2	1			1			

64.	“O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-Epidemiologik Osoyishtalik va Jamoat Salomatligi qo‘mitasining Xorazm viloyati boshqarmasi Xiva tuman bo‘limi” davlat muassasasi	200206433	81	3	1			1			
65.	“Xiva tumani suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi	305081291	47	2	2			2			
66.	Xiva tumani Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi	201861854	42	1	1			1			
67.	“Xiva tumani tibbiyot birlashmasi” davlat muassasasi	202232488	1468	40	5	2		3			

68.	“Xiva muruvvat nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun erkaklar internat uyi” davlat muassasasi	201987332	227	6	1	1					
69.	“Xiva tuman Sport maktabi” davlat muassasasi	207237746	53	3	1			1			
70.	Xiva tuman Politexnikumi	201987292	74	3	2			2			
71.	Xiva tuman 12-son bolalar musiqa va san’at maktabi” davlat muassasasi	203265288	52		1			1			
72.	“Xiva tuman barkamol avlod bolalar maktabi” davlat muassasasi	307963782	39	2	1			1			

Xiva tumanida 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni 100 nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar (*davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno)* tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli

RO‘YXATI

T/r	Tashkilot nomi	Tashkilot STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlar-ning umumiy soni	shundan,	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:			
				nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		Nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar
JAMI:			**742**	**25**	**3**	**1**	**2**	**0**	**0**
1	**“KHIVA CLUSTER” mas’uliyati cheklangan jamiyat**	305916421	636	25	2		2		
2	**“KHIVA SILK FABRIC” mas’uliyati cheklangan jamiyat**	305130894	106	0	1	1			